

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**IJTIMOIIY VA AMALIY FANLARNI O‘QITISH METODIKASI  
KAFEDRASI**

**B.M. Gulmuradov, A.A. Parmanov**

**CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYORGARLIK FANINIDA  
QUROLLARDAN OTISHNING ASOSLARI VA QOIDALARI**

*(umumta‘lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayorgarlik fani  
o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma)*

**SAMARQAND – 2022**

B.M. Gulmuradov, A.A. Parmanov (Samarqand viloyati Jomboy tumani 51-maktabning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayorgarlik fani o'qituvchisi)

– Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayorgarlik fanida qurollardan otishning asoslari va qoidalari. – Samarqand, 2022 yil. 22 – bet.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayorgarlik fanida qurollardan otishning asoslari va qoidalari ko'rsatilgan. Shuningdek o'qotar qurollar va qo'l granatalari haqida ma'lumotlar berilgan. Uslubiy ko'rsatmadagi ma'lumotlar darslarning qiziqarli o'tilishida va o'quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda amaliy yordam beradi. Ko'rsatma umumta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayorgarlik fani o'qituvchilariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**J.Eshquvatov** – Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik, ilmiy-axborot tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

**Taqrizchilar:**

**S. Xolmurodov** - Samarqand Davlat Universiteti chaqiruvgacha harbiy ta'lim yo'nalishi boshlig'i

**U.Q. Utanov** - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent

Ushbu uslubiy ko'rsatma Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy Kengashining 202\_\_ yil \_\_-\_\_\_\_\_- sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

I. Kirish.....	4
II. Paydo bo‘ladigan va harakatlanuvchi nishonlarga qarata turli usullar bilan o‘t ochish .....	6
2.1. Otish mashqlarini o‘tkazish tartibi va ularni tashkil etish.....	6
2.2. Avtomat, merganlik miltig‘i (vintovka), qo‘l pulemyoti va kalashnikov pulemyotidan otish mashqlari.....	12
2.3. O‘quv otish mashqlari.....	13
Foydalanilgan adabiyotlar .....	22

## I. KIRISH

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni asosida, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik yoshlarni O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'zlashtirgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safiga harbiy xizmatga chaqirilgan paytda Vatanni himoya qilishda o'zining konstitutsiyaviy burchini benuqson bajarishlari va qisqa muddatda ularga ishonib topshirilgan zamonaviy qurollar hamda harbiy texnikalarini bilishlari lozim.

Yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga qo'shinlarning o'quv jangovar faolyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qisimlardagiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlarni ko'p marotaba takrorlash natijasida yoshlarda zaruriy harbiy bilimlar va kasbiy mahorat asoslari yuzaga keladi.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayorlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining umumiy rahbarligi ostida o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimlari chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayorlash ishlarini moliyalashtirish hamda moddiytexnik jihatidan ta'minlashni amalga oshiradilar, o'quv-moddiy bazasini barpo etgan holda bunday tayyorgarlikning tashkil etilishi uchun javobgar xisoblanadilar.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayorlashni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib borish, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining o'qitilishini uslubiy jixatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, shuningdek ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

“O‘z istiqloli va ozodligining qadrini bilmaydigan, uni himoya qila olmaydigan, bunga kuch-qurbi yetmaydigan millat hech qachon erkin yashay olmaydi” degan fikrning tarixiy bir isboti tariqasida “Agar kimki, o‘z armiyasini boqmasa, ertaga o‘zgalar armiyasini boqishga majbur bo‘ladi”, degan hikmatni hech qachon unitmaslik zarur, deb o‘ylayman.

## **II. Paydo bo‘ladigan va harakatlanuvchi nishonlarga qarata turli usullar bilan o‘t ochish.**

### **2.1. Otish mashqlarini o‘tkazish tartibi va ularni tashkil etish**

Uchastkadagi o‘t ochish mashg‘uloti rahbari o‘t ochuvchilarning navbatdagi smenasiga (raschyotiga) jangovar aslaha ta‘minoti punktidan o‘q-dorilarni olish haqida buyruq beradi. O‘q-dorilar tahsil oluvchilarga tarqatish-topshirish vedomosti bo‘yicha donalab yoki tayyorlangan tasmalarda (magazinlarda) tarqatiladi. Zaruratga ko‘ra, o‘q-dorilar tarqatuvchi tomonidan boshlang‘ich holatda, faqatgina tayyorlangan magazinlarda (tasmalarda) tarqatilishi mumkin.

Tahsil oluvchilar o‘q-dorilarni olgandan so‘ng ularni ko‘rib chiqib, magazinlarni (tasmalarni) o‘q-dorilar bilan to‘ldiradilar, magazin (tasma) va granatalarni sumkalarga (qutilarga) joylaydilar hamda smena kattasining rahbarligi ostida boshlang‘ich holatga yo‘l oladilar.

Smena (raschyot) boshlang‘ich holatga yetib kelgach, uchastkadagi o‘t ochish mashg‘uloti rahbari o‘t ochuvchilar guruhi (seksiyasi) komandiriga o‘t ochuvchilarning har biriga jangovar vazifani tushuntirish to‘g‘risida buyruq beradi.

O‘t ochuvchilar guruhi (seksiyasi) komandiri yoki uchastkadagi o‘t ochish mashg‘uloti rahbari har bir o‘t ochuvchiga mashqni bajarish tartibini (o‘t ochish pozitsiyasi, o‘rni va o‘t ochish holati, otish sektori, harakat yo‘nalishi, tahsil oluvchilarning otish navbati va boshqalar) tushuntiradi.

Tahsil oluvchilar smenasi va uchastkaning o‘t ochish mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun shayligiga ishonch hosil qilgach, uchastkadagi o‘t ochish mashg‘uloti rahbari uchastkaning boshqaruv punktida qizil bayroq ko‘tarishni (VSM ning qizil rangdagi yarim doirasini ochishni) (bundan buyon matn davomida qo‘mondonlik, uchastka boshqaruv punktlaridagi bayroqlar haqida aytilgan hamma narsa vizual signal moslamasiga (VSM) ham taalluqli bo‘ladi) buyuradi va o‘t ochish mashg‘ulotining katta rahbariga o‘t ochishga shaylik haqida bildiruv beradi.

Barcha maydonlar o‘t ochish mashg‘ulotini o‘tkazish uchun shay holatga kelishi bilan o‘t ochish mashg‘ulotining katta rahbari qo‘mondonlik punktida qizil


bayroq ko‘tarishni (VSM ning qizil rangdagi yarim doirasini ochishni) buyuradi va “Hamma eshitsin!” signalini berishga ko‘rsatma qiladi.

## AVTOMATDAN OTISH USULLARI


Yotgan holda otish holatini olish



O‘t ochishni tugatgandan keyin avtomat holati




O‘qchining tik turgan holda qurolni ko‘zdan kechirish uchun holati



O‘ng qo‘l tirsagini qo‘yish joyini topish




Yelka chuqurligida qo‘ndog‘ holatining to‘g‘riligini tekshirish



1-rasim.

Ushbu signal bo'yicha va o't ochish mashg'uloti rahbarining "O't ochish pozitsiyasi falon yerda (to'nka yonida, tepalik yonida) va shu kabilar, ko'rsatilgan o't ochish pozitsiyasiga yugurgan (emaklab yurgan) holda-olg'a!" komandasiga binoan olingan vazifalariga muvofiq o't ochish pozitsiyalarini (jangovar mashinalarda, vertolyotlarda, mustahkamlangan hududlarning inshootlardagi o'z joylarini) egallaydilar (1-rasim). Tahsil oluvchilarning shayligi hamda o't ochishning xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilgach, o't ochish mashg'ulotining katta rahbari "O't och!" signalini berishga ko'rsatma beradi.

### O'qchi nafas olishida qurol stvolining tebranishi



2-rasim.

Uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari "O't och!" signalini olgandan so'ng "Jangga!" komandasini beradi, tahsil oluvchilar quyidagi tartibda harakat qiladilar:

joyda turib o't ochish nazarda tutilgan mashqlarni bajarishda (o't ochish pozitsiyalarini almashtirish bilan) tahsil oluvchilar o't ochish marrasidagi ko'rsatilgan o't ochish pozitsiyalarini egallaydilar, qurolni o'qlaydilar va "Falonchi, jangga tayyor!" deb bildiruv beradi; bildiruvlarni qabul qilgach, o't ochish mashg'uloti rahbari tahsil oluvchilarga "O't och" komandasini beradi; tahsil oluvchilar qo'yilgan vazifaga muvofiq ko'rsatilgan o't ochish sektorini kuzatadilar (2-rasim), nishonlar aniqlangan vaqtda esa mashq shartlarida otish uchun ko'zda tutilgan holatlardan ularga qarata mustaqil ravishda o't ochadilar;

O't ochish marrasidan ma'lum uzoqlikdagi tayinlangan o't ochish pozitsiyalariga qarab siljish nazarda tutilgan mashqlarni bajarishda uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbarining "Jangga!" komandasiga ko'ra tahsil oluvchilar



o't ochish marrasida o't ochishga tayyorlanadilar, qurolni o'qalaydilar va "Falonchi, jangga tayyor!" deb bildiruv beradilar; o't ochish mashg'uloti rahbarining "Falon o't ochish marrasi tomon – olg'a" komandasiga binoan tahsil oluvchilar qurollarni saqlagichga qo'ygan holda jadal qadamlar bilan, qisqa masofalarga yugurib o'tgan yoki yugurgan holda ko'rsatilgan o't ochish pozitsiyalari tomon siljiydilar, ularni egallaydilar hamda qo'yilgan vazifaga muvofiq ko'rsatilgan o't ochish sektorini kuzatadilar, nishonlar aniqlangan vaqtda esa mashq shartlarida otish uchun ko'zda tutilgan holatlardan ularga qarata mustaqil ravishda o't ochadilar;



3-rasim.

hujumda harakatlanish nazarda tutilgan mashqlarni bajarishda uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbarining "Jangga! Hujumga tayyorlan!" komandasiga ko'ra tahsil oluvchilar o't ochish marrasida o't ochishga tayyorlanadilar, qurolni o'qlaydilar, va "Falonchi, jangga tayyor!" deb bildiruv beradilar; "Hujumga – olg'a" komandasiga binoan jadal qadamlar bilan, qisqa masofalarga yugurib o'tgan yoki yugurgan holda mustaqil ravishda nishonlarni aniqlaydilar va mashq shartlarida otish uchun ko'zda tutilgan holatlardan ularni yo'q qiladilar (3-rasim).

Harakat davomida va harakat davomida qisqa vaqt to'xtab o't ochish ko'tara solib darhol otish bilan olib boriladi, qurolni qayta o'qlash harakatlanishdan to'xtamagan holda harakat davomida amalga oshiriladi. Harakat davomida qisqa vaqtga to'xtashlarning davomiyligi kunduzi ko'pi bilan 7 soniyadan, tunda esa 9 soniyadan oshmasligi kerak.

Mashqlarni jangovar mashinalarning o't ochish tuynuklaridan bajarish vaqtida uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari o't ochuvchilarning navbatdagi smenasiga "Joylar egallansin" komandasini beradi. Tahsil oluvchilar raschyotga muvofiq jangovar mashinalardagi o'z joylarini egallaydilar. Uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbarining "O'ng (chap) bortdan – jangga" komandasiga binoan o'ng bortdagi tahsil oluvchi qurolni o't ochish tuynugiga mahkamlaydi, magazinni (korobkani) iladi hamda patronni patronga yubormagan holda "Falonchi, jangga tayyor!" deb bildiruv beradi. Uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari tahsil oluvchining o't ochish uchun shayligiga ishonch hosil qilgach "Olg'a" komandasini beradi. Jangovar mashina o't ochish marrasidan o'tgandan so'ng tahsil oluvchilar o't ochish mashg'uloti rahbarining "Jangga" komandasiga binoan qurollarni o'qlab, nishonlarni aniqlaydilar va yo'q qiladilar. Agar jangovar mashinalarning o't ochish tuynugidan (bort tepasidan) o't ochishda harakat davomida qisqa vaqtga to'xtab o't ochishlar nazarda tutilgan bo'lsa, tahsil oluvchi nishon aniqlanishi bilan haydovchi-mexanikka (haydovchiga) "Qisqa" komandasini (signalini) beradi. Nishon o'qqa tutilgach yoki harakat davomida qisqa vaqtga to'xtashga ajratilgan vaqtning o'tishi bilan (harakat davomida qisqa vaqtga to'xtashning davomiyligi kunduzi 10 soniya, tunda esa 12

soniyadan oshmaydi) mexanik-haydovchi (haydovchi) mustaqil ravishda jangovar mashina harakatini boshlaydi. Jangovar mashinalar tuynugidan (bort tepasidan) harakat davomida o't ochish nazarda tutilgan mashqlarda jangovar mashinalar harakatini susaytirish taqiqlanadi.

Mashqlarni bajarish tugagandan so'ng tahsil oluvchilar qurolni o'qsizlantiradilar, uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari qurolni ko'zdan kechirib, smenani boshlang'ich holatga qaytaradi, uchastkaning boshqaruv punktidagi qizil bayroqni oq rangdagi bayroq bilan almashtirishga ko'rsatma beradi va har bir tahsil oluvchining mashq paytidagi harakatlari, o't ochish natijalari yuzasidan kuzatuvlar, o'q-dorilarning sarflanishi, nosozliklar hamda otishdagi tutilishlar to'g'risidagi bildiruvini tinglaydi.

Bildiruv berishning na'munaviy shakli quyidagicha: "O'rtoq katta leytenant, oddiy askar To'raev avtomatdan nazorat otish mashqini ijro etdi. O't ochish vaqtida:

pulemyot raschyoti yo'q qilindi (yo'q qilinmadi);

tankka qarshi qo'l granatomyoti o'qqa tutildi;

yotib olgan piyodalar guruhi yo'q qilinmadi.

O'q-dorilarning barchasi sarflandi (barchasi sarflanmadi, shuncha patron ortib qoldi), otish vaqtida tutilishlar bo'lmadi (bunday tutilishlar bo'ldi)".

Uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari tahsil oluvchining bildiruvlarini tinglab bo'lgach, mashqlar ijrosi yuzasidan qisqacha muhokama o'tkazadi va unda tahsil oluvchilar e'tiborini quyidagi jihatlarga qaratadi:

tahsil oluvchilarning otishga tayyorlanish vaqtidagi harakatlari, otish yo'llari va usullarining to'g'ri ijro etilishi, harakat davomida qisqa vaqtga to'xtashlar davomiyligi;

otish uchun ma'lumotlarni tayyorlashdagi aniqlik, boshlang'ich ko'rsatmalarga tuzatishlar kiritish va o't ochish amalini olib borishga tuzatishlar kiritish;

harakatlanish, o't ochishni olib borish, qo'l granatalarini uloqtirish vaqtida joy va mahalliy predmetlarning himoya xususiyatlaridan foydalanish;

o't ochib bir-birini o'zaro himoya qilish vaqtida tahsil oluvchilarning harakatlaridagi uyg'unlik;

mashq shartlari va xavfsizlik talablarining bajarilishi.

Uchastkadagi o't ochish mashg'uloti rahbari muhokamani o'tkazib bo'lgandan so'ng baholarni e'lon qilib, sarflanmagan o'q-dorilarni jangovar aslaha ta'minoti punktiga yoki tarqatuvchiga topshirish va navbatdagi o'quv joyiga yo'l olish to'g'risida buyruq beradi. So'ngra o't ochish mashg'uloti katta rahbariga smenaning o't ochishni tugatganligi to'g'risida bildiruv beradi.

Smena boshlang'ich holatga qaytgandan so'ng (uchastka boshqaruv punktlarining barchasida oq bayroq chiqarib qo'yilgandan so'ng) o't ochish mashg'ulotining katta rahbari qo'mondonlik punktida oq bayroq chiqarib qo'yish, "Jang (mashq) tamom" signalini berish va zaruriyat bo'lsa, soxta nishonlarni ko'zdan kechirish haqida ko'rsatma beradi.

## **2.2. Avtomat, merganlik miltig'i (vintovka), qo'l pulemyoti va kalashnikov pulemyotidan otish mashqlari**

### **O'qli qurol (AK-74 (AKS-74), RPK-74, PK, SVD) yordamidajiro etiladigan boshlang'ich mashqlar**

#### **"Kunduzi joyda turib harakatsiz va paydobo'ladigan nishonlarga qarata o't ochish"**

Nishonlar:

ichiga aylanalar chizilgan ko'krak barobar shakl (o'lchamlari 0,75x0,75 m bo'lgan shchitdagi 4-sonli sun'iy nishon, harakatsiz; shchit yer yuzasiga (bo'sh joy qoldirmasdan) o'rnatiladi);

hujum qiluvchi (qarshi hujum qiluvchi) mergan - cheklanmagan vaqtga paydo bo'ladigan bo'y barobar shakl (7-sonli suniy nishon).

Nishonlargacha bo'lgan uzoqlik:

ko'krak barobar shakligacha - 100 m;

hujum qiluvchi (qarshi hujum qiluvchi) mergangacha - 200 m.

Patronlar soni: avtomatlar (RPK, PK) uchun – 9, Dragunov merganlik miltig‘i (DMM) (karabin) uchun – 6.

Ulardan:

avtomatlar (RPK, PK) uchun – 3 tasi yakka o‘q uzishlar bilan ichiga aylanalar chizilgan ko‘krak barobar shaklga qarata otish, 6 tasi esa avtomatik tarzda o‘q uzishlar bilan hujum qiluvchi (qarshi hujum qiluvchi) merganga qarata otish (Kalashnikov pulemyoti uchun 3 ta patron tasmaga joylanadi) uchun;

Dragunov merganlik miltig‘i (DMM) (karabin) uchun – 3 tasi ichiga aylanalar chizilgan ko‘krak barobar shaklga qarata otish, 3 tasi esa hujum qiluvchi (qarshi hujum qiluvchi) merganga qarata otish uchun.

O‘t ochishga ajratilgan vaqt: cheklanmagan.

O‘t ochish holati: yotgan holatda tirgakdan.

Baho:

“a‘lo” - 25 ball va 7-sonli nishonni yo‘q qilish;

“yaxshi” - 20 ball va 7-sonli nishonni yo‘q qilish;

“qoniqarli” - 15 ball va 7-sonli nishonni yo‘q qilish.

Mashqlar ijro etib bo‘lingandan so‘ng o‘t ochish mashg‘uloti rahbari tahsil oluvchi bilan birgalikda sun‘iy nishonlarni ko‘zdan kechirib chiqadi va tahsil oluvchiga yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatadi.

### **2.3. O‘quv otish mashqlari**

***1-mashq.** Paydo bo‘ladigan va harakatlanuvchi nishonlarga qarata joyda turib otish.*

Nishonlar:

30 soniyaga paydo bo‘ladigan pulemyot raschyoti (10a-sonli sun‘iy nishon); stvol osti granatomyotidan mashqni bajarishda pulemyot raschyotiga mergan (7-sonli sun‘iy nishon) ham qo‘shiladi. Ikkala sun‘iy nishon sarhadlari front bo‘ylab 10 metr va ichkariga tomon 20 metrgacha bo‘lgan tashqi o‘lchamlarda joylashtiriladi hamda 1 daqiqa davomida paydo bo‘ladi;

## PARCHALANUVCHI QO'L GRANATASINI ULOQTIRISH

Harakat paytida granatani uloqtirish



Bel kamaridagi granata sumkasi



Granatani xandaqdan uloqtirish



4-rasim.

hujum qilayotgan (chekinayotgan) piyodalar guruhi – 60 m lik masofa davomida otish yuzasiga nisbatan 15-25° darajali burchak ostida, 2-3 m/s tezlik va 10-20 soniyalik oraliq bilan ikki marta (oldinga va orqaga) harakatlanadigan, 3 metrdan kam bo'lmagan front bo'ylab joylashtirilgan ikkita bo'y barobar shakl (8-sonli sun'iy nishon).

Qo‘shin turlari va maxsus qo‘shinlarning bo‘linmalari uchun harakatlanuvchi nishon o‘rniga paydo bo‘ladigan nishonlar qo‘llaniladi – nishonning harakatini (yaqinlashish, uzoqlashish) imitatsiyalovchi turli marralarda joylashgan ikkita mergan (8a-sonli sun‘iy nishon), bunda 10-20 soniyalik oraliq bilan uzoqdagi mergan 20 soniyaga, yaqindagisi esa 15 soniyaga paydo bo‘ladi.

Tog‘ sharoitida mashqlarni bajarishda harakatlanuvchi nishon paydo bo‘ladigani bilan almashtiriladi – ikkita mergan – 6 metrdan kam bo‘lmagan front bo‘ylab joylashtirilgan bel barobar shakl (7-sonli sun‘iy nishon). Nishonni ko‘rsatish vaqti 40 soniya.

### Nishongacha bo‘lgan uzoqliklar, m:

Qurol turi	Nishonlar				
	Pulemyot raschyoti	Hujum qilayotgan (chekinayotgan) piyodalar guruhi	Pulemyot raschyoti va mergan	Piyodalar guruhi*	
				Uzoq marradagi	Yaqin marradagi
Motoo‘qchi, razvedka va pulemyotchi bo‘linmalar uchun					
7,62 mm li avtomat (ovoz chiqarmay otuvchi vosita (OChV) bilan) (PBS)	350-300 (300-200)	350-250 (250-150)	-	350-250 (300-250)	250-200 (200-150)
7,62 mm li qo‘l pulemyoti va 5,45 mm li avtomat	450-350	350-250	-	350-300	250-200
5,45 mm li qo‘l pulemyoti, 7,62 mm li Kalashnikov pulemyoti, 7,62 mm li merganlik miltig‘i	500-400	400-300	-	400-350	300-250
40 mm li stvol osti	-	-	350-250	-	-

Qurol turi	Nishonlar				
	Pulemyot raschyoti	Hujum qilayotgan (chekinayotgan) piyodalar guruhi	Pulemyot raschyoti va mergan	Piyodalar guruhi*	
				Uzoq marradagi	Yaqin marradagi
granatomyoti					
7,62 mm li avtomat, 7,62 mm li karabin, miltiq 1981/30y.	250-200	-	-	300-250	200-150
7, 62 mm li qo'l pulemyoti, 5,45 mm li avtomat	300-250	-	-	300-250	200-150
7,62 mm li Kalashnikov pulemyoti, 5,45 mm li qo'l pulemyoti	350-300	-	-	350-300	250-200

Nishon mashq tog' sharoitlarida hamda qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bo'linmalarining shaxsiy tarkibi tomonidan ijro etilgan vaqtda qo'llaniladi.

Bitta o't ochish pozitsiyasidan mashqlarni bajarishda, nishonlarni ko'rsatishning oraliq vaqti 10-20 soniya.

O'q-dorilar soni:

Motoo'qchi, razvedka va pulemyotchi bo'linmalar uchun:

avtomat va pulemyotlar uchun – 20 ta patron, ulardan 5 tasi yonuvchi o'qlar bilan;

stvol osti granatomyoti mavjud avtomat uchun – 12 ta patron, ulardan 3 tasi yonuvchi o'qlar bilan;

ovoz chiqarmay otuvchi vositali (OChV) avtomat uchun – 9 ta patron;

mergan miltig'i uchun – 6 ta patron, ulardan 2 tasi yonuvchi o'qlar bilan;

stvol osti granatomyoti uchun – 3 ta shtatdagi o'q-dori.



Qo‘shin turlari va maxsus qo‘shinlarning bo‘linmalari uchun:

avtomatlar va pulemyotlar uchun – 12 ta patron, ulardan 3 tasi yonuvchi o‘qlar bilan.

O‘t ochish holati: to‘siqlar ortidan (to‘nka, tosh, voronka va h.k.): avtomat va merganlar miltig‘idan – yotgan holda qo‘ldan (tuproqqa qurolni tirashga ruxsat berilmaydi); qo‘l pulemyotidan – tirgakdan, Kalashnikov pulemyotidan – tirgakdan (stanokdan); stvol osti granatomyotidan – tizzadan.

Baho:

**“a’lo”** – uchta sun‘iy nishonni yo‘q qilish;

**“yaxshi”** – ikkita sun‘iy nishonni yo‘q qilish, jumladan, pulemyot raschyotini ham;

**“qoniqarli”** – bitta sun‘iy nishonni yo‘q qilish.

Stvol osti granatomyot mavjud avtomat bilan mashqlarni bajarishda: **“a’lo”** – ikkita harakatlanuvchi sun‘iy nishonni yo‘q qilish va granatani nishonning tashqi o‘lchamiga tekkizish; **“yaxshi”** – bitta harakatlanuvchi sun‘iy nishonni yo‘q qilish va granatani nishonning tashqi o‘lchamiga tekkizish; **“qoniqarli”** – bitta harakatlanuvchi sun‘iy nishonni yo‘q qilish yoki granatani nishonning tashqi o‘lchamiga tekkizish. Mashqlarni bajarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Mashqlarni o‘t ochuvchining tanloviga ko‘ra (avtomatik tarzda yoki yakka holda o‘q uzib) to‘siqlar ortidan yotgan holda qo‘ldan bajarishga ruxsat etiladi.

Ovoz chiqarmay otuvchi vositali (OCHV) avtomatdan o‘t ochish faqatgina yakka holda o‘q uzishlar bilan olib boriladi.

Stvol osti granatomyoti mavjud avtomat bilan mashqlarni bajarishda o‘t ochish quyidagicha olib boriladi:

avtomatdan – harakatlanuvchi nishonga qarata;

stvol osti granatomyotidan – pulemyot raschyoti va tashqi o‘lchamlarda joylashgan merganga qarata.

**2-mashq.** Paydo bo'luvchi va harakatlanuvchi nishonlarga qarata joyda turib, harakat davomida qisqa vaqt to'xtab va harakat davomida o't ochish (4-rasim).

Nishonlar:

tankka qarshi qo'l granatomyoti (9-sonli sun'iy nishon), 10-20 soniyalik oraliq bilan ikki marta 15 soniyaga paydo bo'ladi;

hujum (qarshi hujum) qilayotgan piyodalar guruhi – 60 m lik masofa davomida otish yuzasiga nisbatan 15-25° darajali burchak ostida, 2-3 m/s tezlik va 10-20 soniyalik oraliq bilan ikki marta (oldinga va orqaga) harakatlanadigan, 3 metrdan kam bo'lmagan front bo'ylab joylashtirilgan ikkita bo'y barobar shakl (8-sonli sun'iy nishon).

Tog' sharoitida mashqlarni bajarishda harakatlanuvchi nishon paydo bo'ladigan nishon bilan almashtiriladi – ikkita mergan – 6 metrdan kam bo'lmagan front bo'ylab joylashtirilgan bel barobar shakl (7-sonli sun'iy nishon).

**Nishongacha bo'lgan uzoqlik, m:**

Qurol turi	Nishonlar	
	Tankka qarshi qo'l granatomyoti	Hujum (qarshi hujum) qilayotgan piyodalar guruhi
7, 62 mm li avtomat, 7,62 mm li qo'l pulemyoti	200-150	400-300
5,45 mm li avtomat, 5,45 mm li qo'l pulemyoti	200-150	500-400
7.62 mm li Kalashnikov pulemyoti	200-150	500-400

Patronlar soni: 25 ta, ulardan 6 tasi yonuvchi o'qlar bilan; patronlar soni teng qilib ikki magazinga joylanadi, Kalashnikov pulemyoti uchun - bitta tasмага orasi 5-10 bo'g'indan qilib joylanadi.

O‘t ochish holati:

tankka qarshi qo‘l granatomyotiga qarata – harakat davomida (Kalashnikov pulemyotidan tog‘ sharoitida o‘t ochishda – harakat davomidagi qisqa vaqtga to‘xtashlarda tik turgan holatda);

hujum (qarshi hujum) qilayotgan piyodalar guruhiga qarata – o‘t ochuvchining tanloviga ko‘ra o‘t ochish bir-ikkita o‘t ochish pozitsiyalaridan olib boriladi.

Baho:

“a’lo” – uchta sun’iy nishon yo‘q qilinsa;

“yaxshi” – ikkita sun’iy nishon yo‘q qilinsa, jumladan, tankka qarshi qo‘l granatomyoti ham;

“qoniqarli” – bitta sun’iy nishon yo‘q qilinsa.

***3-mashq.** Jangovar mashinalar tuynugi orqali harakat davomida qisqa vaqt to‘xtab va harakat davomida o‘t ochish.*

Nishonlar:

tankka qarshi qo‘l granatomyoti (9-sonli sun’iy nishon) - harakat yo‘nalishiga nisbatan 60-90° li burchak ostida 40 soniyaga paydo bo‘ladi;

piyodalar guruhi – harakat yo‘nalishiga nisbatan 90° li burchak ostida 30 soniyaga paydo bo‘lib, front bo‘ylab 10 metr hamda ichkariga tomon 5 metrgacha bo‘lgan sarhadlarda joylashtirilgan beshta bo‘y barobar shakl (8-sonli sun’iy nishon);

mashina harakati yo‘nalishining o‘ng yoki chap tomonida 35-45° burchak ostida undan 15 m uzoqlikda joylashgan, uzunligi 10 m va kengligi 1 m bo‘lgan okop.

### Nishongacha bo'lgan uzoqlik, m:

Qurol turi	Nishonlar	
	Tankka qarshi qo'l granatomyoti	Hujum (qarshi hujum) qilayotgan piyodalar guruhi
7.62 mm li avtomat, 7,62 mm li qo'l pulemyoti	400-300	200-150
5,45 mm li avtomat, 5,45 mm li qo'l pulemyoti, 7,62 mm li Kalashnikov pulemyoti, 7,62 mm li merganlar miltig'i	450-350	200-150

Qo'l granatasini nishonga qarata uloqtirish uzoqligi 40-15 m.

O'q-dorilar soni:

avtomat va pulemyotlar uchun – 25 ta patron, ulardan 6 tasi yonuvchi o'qlar bilan;

merganlar miltig'i uchun – 8 ta patron, ulardan 3 tasi yonuvchi o'qlar bilan;  
o'quv-imitatsion granatalari – 1 (mashqlarni Kalashnikov pulemyotida bajarishda granata berilmaydi).

Tog' sharoitida otishda O't ochish kursining 1-qismi 9-bandida keltirilgan qoidalar hisobga olinadi.

O't ochish holati:

avtomatlar va qo'l pulemyotlaridan – jangovar mashinaning o'ng (chap) bortidagi o't ochish tuynugidan.

O't ochish tuynugi bo'lmagan mashinalardan o't ochishda, mashqlarni merganlar miltig'i va Kalashnikov pulemyotida bajarish hamda tunda nishonga olish moslamalari mavjud avtomat va qo'l pulemyotlaridan tunda o't ochish vaqtida o't ochish amali mashinaning borti ustidan olib boriladi.

Mashinaning nishonga nisbatan harakati yon tomonga yo'nalgan yoki qiyalama bo'ladi. O't ochish marrasidan o't ochishni to'xtatish marrasigacha bosib o'tiladigan masofa 150 m.

O‘t ochish vaqti: “Olg‘a” komandasi berilgandan mashinaning o‘t ochishni to‘xtatish marasiga chiqish vaqtigacha – 1 daqiqa 25 soniya.

Motoresurklar: 0,8 km.

Baho:

**“a’lo”** – uchta sun’iy nishonni, shu jumladan, tankka qarshi qo‘l granatomyotini yo‘q qilish yoki ikkita sun’iy nishonni, shu jumladan, tankka qarshi qo‘l granatomyotini yo‘q qilish hamda granatani okopga aniq uloqtirish;

**“yaxshi”** – ikkita sun’iy nishonni, shu jumladan, tankka qarshi qo‘l granatomyotini yo‘q qilish yoki tankka qarshi qo‘l granatomyotini yo‘q qilish hamda granatani okopga aniq uloqtirish;

**“qoniqarli”** – ikkita sun’iy nishonni yo‘q qilish.

Mashqlarni bajarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Mashqlarni avtomat va pulemyotlarda bajarish vaqtida piyodalar guruhiga qarata o‘t ochish harakat davomida, tankka qarshi qo‘l granatomyotiga qarata o‘t ochish harakat davomida ikki marta qisqa vaqtga to‘xtashlar bilan, merganlar miltig‘idan hamma nishonlarga qarata o‘t ochish esa harakat davomida to‘rt marta qisqa vaqtga to‘xtashlar bilan olib boriladi.

Mashqlar ikki nafar tahsil oluvchi tomonidan ijro etiladi, ulardan biri aniqlangan nishonlarga qarata o‘t ochishni olib boradi, ikkinchisi esa qo‘l granatasini okop tomon uloqtiradi; mashinaning orqaga harakatlanishi vaqtida granatani uloqtirgan tahsil oluvchi quroldan o‘t ochishni olib boradi, o‘t ochishni olib borgani esa granatani okop tomon uloqtiradi: granataning aytilgan joyga tushishi granatani nishonga tekkizgan tahsil oluvchining mashq bahosiga qo‘shiladi (okopdagi hamda okop devorlaridan 1 metrdan ko‘p bo‘lmagan uzoqlikdagi Brustverga tushgan granatalar nishonga tekkan hisoblanadi).

Mashqlarni Kalashnikov pulemyotida bajarish vaqtida granata uloqtirilmaydi va baho faqatgina yo‘q qilingan sun’iy nishonlarning soni bo‘yicha aniqlanadi.

Mashqlarni bajarish vaqtida qo‘l granatasi harakat davomida uloqtiriladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabr kunidagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi qonuni.
2. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘rta ta’lim muassasalarining 11-smfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darsligi. Toshkent - «ILM Z IY O — 2018 yil.
3. <https://bezotdyx.ru/uz/>



